



milliy tiklanish

№ 5 263

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish.gazetasi | t.me/milliy_tiklanish_gazetasi

XORIJIY TILLAR: yoshlar uchun yangi imkoniyatlar



OLIMJON O'SAROV qo'llanmasi qayta nashr etildi



JARIMA KAMAYADI 98 foizga...



Endi ijara tartibini buzgan mansabdorlar jazolanadi

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, iqlim o'zgarishi tabiiy ofatlarning yangi turlarini keltirib chiqarish bilan birga kuchli ichki migratsiyaga ham sabab bo'lishi mumkin. Ya'ni, 2050-yilgacha dunyoning oltita mintaqasidan 216 million kishining boshqa hududlarga ko'chish xavfi paydo bo'lyapti. Bu mintaqalar orasida Markaziy Osiyo hamda unda yashayotgan 50 milliondan ortiq aholining borligi ushbu muammoning naqadar dolzarbligini ko'rsatadi.

Mirziyoyev raisligida 29-mart kuni «Yashil makon» loyihasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ko'tarilgan masalalar atroficha muhokama qilindi. – Avvalo, odamlarga daraxt ekish nima uchun zarurligini, bu borada hisobot uchun, xo'jako'rsin uchun qilingan ishlar aslida o'zimizni o'zimiz aldash ekanini tushuntirishimiz zarur, – dedi partiya yetakchisi – Fraksiya rahbari Alisher Qodirov.



Ma'lumki, joriy yil bahorda «Yashil makon» loyihasi doirasida 125 million tup ko'chat ekish mo'ljallangan. Biroq videoselektor yig'ilishida aksariyat viloyat va tumanlarda daraxt ekadigan joylarning haligacha belgilanmagani, sug'orish va ko'chatga pul ajratilmagani qayd etildi. Shu bois, 28 nafar mansabdorga nisbatan intizomiy jazo qo'llanildi. Deputatlar bunga daraxt ekishni ommalashtirish bo'yicha tashabbus va targ'ibot ishlarining ustligi sabab bo'layotganini, bu borada nodavlat tashkilotlar ham birdek harakat qilishlari lozimligini ta'kidladilar.

Davomi 2-sahifada

◆ Parlamentda

Haqiqatdan ham mintaqamizda iqlim, atrof-muhit, suv, yer resurslari va boshqa ekologik masalalar allaqachon boshqarish qiyin bo'lgan muammoga aylandi. Markaziy Osiyo markazida joylashgan O'zbekistonda ham ekologiya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani shundan. Ta'kidlash joiz, mamlakatimizda so'nggi yillarda iqlim bilan bog'liq muammolarga yechim sifatida ko'kalamzorlashtirishga katta e'tibor qaratilyapti. «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining 1-aprel kuni bo'lib o'tgan navbatdagi yig'ilishida dastlab Prezident Shavkat

Saylovchi ishonchi to'la oqlanadi



Hududiy kengashlarda

BUGUN POYTAXTDA 64 NAFAR (10 NAFAR SHAHAR VA 54 NAFAR TUMAN) DEPUTAT BOR BO'LIB, 2023-YILDA ULAR TOMONIDAN SHAHAR KENGASHI SESSİYALARIGA 18 TA MASALA OLIB CHIQLDI. DOIMIY KOMISSIYA YIG'ILISHLARIGA 21 TA TAKLIF KIRITILIB, QARIYB 20 MAROTABA MANSABDOR SHAKSLARNING HISOBOTLARI ESHITILDI.

3s

4 TILIM-TILIM TILINGAN TILIM

Atoqli shoir Abdulla Oripovning ushbu mashhur satri she'riyat muxlislariga tanish. Muallif «qalam dehqoni» deb ta'riflagan zahmatkash ustoz – Mirtemir domlaga bag'ishlangan she'rdan olingan bu misra kishini chuqur o'ygatdiradi.

5 BELARUSDA «O'ZBEKISTON MADANIYATI KUNLARI» BO'LIB O'TADI

Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov Belarus Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Leonid Marinich boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.



Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi... Novdalarni bezab g'unchalar, Tongda aytdi hayot otini Va shabboda qurg'ur ilk sahar Olib ketdi gulning totini.

8 2024-YIL 1-APRELDAN NIMALAR O'ZGARADI?

O'qituvchilar va maktab direktorlari TALIS tadqiqotida ishtirok etadi



O'zbekiston maktablari 2024-yilning aprel va may oylarida birinchi marotaba «TALIS – 2024» tadqiqotida ishtirok etadi. TALIS (Teaching and Learning International Survey) o'qituvchilar faoliyati, ish sharoiti va maktabdagi ta'lim muhitini baholashga qaratilgan eng yirik xalqaro tadqiqot bo'lib, har olti yilda o'tkaziladi. TALIS tadqiqotida o'qituvchilar va maktab direktorlari o'rtasida olinadigan so'rovnomalar orqali ta'lim muassasasidagi boshqaruv muhiti baholanadi.

4-sahifa

3-sahifa

1 Deputatlik nazorati yuzasidan

17

ta, fuqarolar murojaati asosida 112 ta deputatlik so'rovi chiqarilgan bo'lsa, ularning deyarli barchasiga ijobiy yechim topildi. 2023-yilda tuman Kengashi deputatlari ham samarali ish olib bordilar. Kengash sessiyalariga 98 ta masala, doimiy komissiya yig'ilishlariga esa 111 ta taklif kiritildi. 103 nafar mansabdor shaxsning hisoboti eshitilib, deputatlik so'rovlari soni 430 tadan oshirildi.

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR



(Boshlanishi 1-sahifada)

Endi ijara tartibini buzgan mansabdorlar jazolanadi



”

Bugun mamlakat bo'yicha 942 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxatga olingan. Bu jami aholining 2,6 foizini tashkil qiladi. Biroq bunday shaxslarning erkin va xavfsiz harakatlanishi uchun ko'plab infratuzilma obyektlarida yetarlicha sharoitlar yaratilmagan.

S hundan so'ng «Ma'muriy islohotlar doirasida ta'lim sohasida davlat boshqaruvi samarali tashkil etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ma'lumki, ma'muriy islohotlarga muvofiq, Xalq ta'limi vazirligi negizida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etilib, uning tarkibiga Maktabgacha ta'lim vazirligi, Prezident ta'lim muassasalari agentligi kiritildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi negizida esa Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tashkil etilib, uning tarkibiga Innovatsion rivojlanish agentligi, Bilim va malakalarni baholash agentligi hamda Oliy attestatsiya komissiyasi kiritildi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi tugatilib, ularning vazifa

qonun loyihasi bilan 3 ta kodeks va 23 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Loyihada ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a'zolarining yarmidan ko'pi mazkur kengashni tuzgan, ilmiy tashkilot va ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan olimlardan iborat bo'lishi shartligi bekor qilinayapti. Shuningdek, moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim tashkilotlari vakolati yanada kengaytirilmoqda. Shu bilan birga «Ta'lim to'g'risida»gi hamda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunlarga davlat ta'lim standartining nodavlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tomonidan majburiy bajarilishi belgilanayapti. Qonun loyihasini ishlab chiqishda AQSH, Germaniya, Fransiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Yaponiya va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganildi. Jumladan, Koreya ta'lim tashkilotlari Koreyaning Oliy ta'lim kengashi tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi. Singapurda esa davlat akkreditatsiyasi Singapur Ta'lim vazirligi huzuridagi Akkreditatsiya agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Fransiyada ta'lim sohasidagi vakolatli organ Milliy ta'lim vazirligi hisoblanib, ushbu

tashkilot nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, ular va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda muassasalar faoliyatini qonuniyligini nazorat qiladi. Nodavlat ta'lim muassasalarida o'qitish esa Ta'lim kodeksi bilan tartibga solinadi. Ma'lumotlarga qaraganda, bugun mamlakatimizda 45 602 ta ta'lim muassasasi bo'lib, ularning 231 tasi oliy ta'lim, 715 tasi professional ta'lim, 93 tasi akademik litsey, 10 621 tasi maktab va 33 942 tasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari hisoblanadi. Ularda 600 199 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat olib bormoqda. Fraksiya yig'ilishida «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ham muhokama qilindi. Ushbu qonun loyihasida BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida qo'llanilgan ayrim tushuncha, atamalar, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning fuqarolik va siyosiy huquqlari milliy qonunchiligimizda aks ettirilmoqda.

Ta'kidlanganidek, bugun mamlakat bo'yicha 942 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxatga olingan. Bu jami aholining 2,6 foizini tashkil qiladi. Biroq bunday shaxslarning erkin va xavfsiz harakatlanishi uchun ko'plab infratuzilma obyektlarida yetarlicha sharoitlar yaratilmagan. Misol uchun, birgina Toshkent shahrida 167 ta yo'nalishda qatnayotgan 1891 ta avtobusning 375 tasi, bino va itimoiy obyektlarning 85 foizi nogironligi bo'lgan shaxslarga moslashtirilmagan. Fraksiya a'zosi Farhod Ashmatov loyihadagi nogironligi bo'lgan shaxslarga odil sudlovdan foydalanish huquqi berilishi bilan bog'liq normaga e'tiroz bildirib, amaldagi qonunchilikda bu borada hech qanday muammo yo'qligini ta'kidlagan bo'lsa, Jahongir Jabborov kiritilayotgan ayrim o'zgarishlar xalqaro konvensiyadan to'g'ridan to'g'ri ko'chirilganini ta'kidladi. – Milliy qonunchiligimiz xalqaro konvensiyaga moslashtirilayotgani yaxshi, lekin uni to'g'ridan to'g'ri ko'chirib bo'lmaydi. Ertaga sudlarda muammolar tug'ilmasligi uchun kiritilayotgan normalar mohiyati to'la ochib berilishi kerak, – dedi Jahongir Jabborov. Qizg'in muhokamalardan so'ng

qonun loyihasi deputatlarining e'tirozi va takliflari asosida ikkinchi o'qishda yanada takomillashtirish sharti bilan ma'quullandi. «Davlat mulkini ijara berish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ham muhokama qilindi. Ta'kidlanganidek, ushbu qonun loyihasi bilan davlat mulkini ijara berish tartibini buzgan, undan samarali foydalanish choralarini ko'rmagan, ijara olgan subyektlar huquqlarini buzgan mansabdorlarga nisbatan ma'muriy javobgarlik belgilanayapti. Jumladan, belgilangan tartibni buzgan mansabdor BHMning 10 baravarigacha, bir yil davomida takror sodir etsa 15 baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kuni kecha bo'lib o'tgan yig'ilishida ham ushbu qonun loyihalari muhokama qililib, birinchi va ikkinchi o'qishda ma'quullandi.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

” MAMLAKATIMIZDA 45 602 TA TA'LIM MUASSASASI BO'LIB, ULARNING 231 TASI OLIY TA'LIM, 715 TASI PROFESSIONAL TA'LIM, 93 TASI AKADEMIK LITSEY, 10 621 TASI MAKTAB VA 33942 TASI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI HISOBLANADI.

va funksiyalari tegishlicha ikki vazirlikka o'tkazildi. Ushbu o'zgarishlardan kelib chiqib, muhokamaga kiritilgan

✓ Deputat minbari

XORIJIY TILLARNI O'RGANISH YOSHLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR YARATMOQDA



Nodir TILAVOLDIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Bundan bir necha yillar avval yoshlarimiz uchun xorijda o'qish yoki ishlash ushulmas orzu bo'lib tuyulardi. Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar tufayli chet elda ta'lim olayotgan va mehnat faoliyatini olib borayotgan yigit-qizlarimiz safi yildan-yilga kengaymoqda.

Ayniqsa, dunyoning eng nufuzli oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan, «Google», «Tesla», «WallMart» kabi korporatsiyalarda, yirik moliya, bank va boshqa sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan o'zbekistonlik yoshlarning ko'payotgani kishini xursand qiladi.

Albatta, ushbu yutuqlarning zamirida katta mehnat va til bilish ko'nikmalari yotibdi. Xalqimizda til bilgan el biladi, deb bejizga aytishmagan. Shu sababli mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2023-2024 – o'quv yilida umumta'lim maktablarida xorijiy tillarni o'qitish uchun chet eldan 500 nafardan ortiq pedagog-mutaxassis jalb qilindi. Joriy yildan boshlab Toshkent shahri va hududlarda tanlab olingan 500 dan ortiq ta'lim muassasalarida ikkita xorijiy tilni o'qitish boshlandi.

Ahamiyatli tomoni, xalqaro til sertifikatini olish uchun imtihondan yuqori ball to'plagan yoshlar davlat tomonidan xarajatlar to'liq qoplab berilyapti. Birgina 2023-yilning o'zida 12 ming 400 nafarga yaqin yoshlarga 21,7 milliard so'mga yaqin mablag' to'lab berildi. Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yigirmadan ortiq xorijiy

tillarni onlayn tarzda bepul va kreativ o'rgatish uchun «Ibrat farzandlari» loyihasi ishga tushirildi.

Bular hali hammasi emas. «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida» amalga oshirishga oid Davlat dasturida ham xorijiy tillarni o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki chet tillarini bilish xorijda mehnat faoliyatini olib borish istagida bo'lgan vatandoshlarimiz uchun juda zarur.

Bugungi globallashtirish dunyoda mehnat migratsiyasi tabiiy jarayon hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, hozirda dunyoda 170 milliondan ortiq mehnat migrantlari bor. Xorijiy tillarni bilmagan tufayli migrantlarning asosiy qismi Rossiya va Qozog'istonda faoliyat olib bormoqda. Tilni yetarli darajada bilmaslik va yetarli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmaslik natijasida ko'p fuqarolarimiz ushbu davlatlarda malaka talab etilmaydigan ishlarida mehnat qilyapti.

So'nggi yillarda yurtimizda xorijda ishlayotganlarga bo'lgan munosabat ham, e'tibor ham tubdan o'zgardi. Xorijda ishlamoqchi bo'lgan shaxslarni talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, fuqarolarning chet elda bo'lish davrida huquqlarini himoya qilish, qaytib kelgan vatandoshlarimizning bandligini ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar qilinmoqda. Maqsad bitta: biz o'zimizga xayrixoh bo'lgan, huquqlari ta'minlangan, yuqori maosh beradigan mamlakatlarga ishbilarani emas, sifatli va iqtidorli kadrlarni tayyorlash.

Joriy yilda olib borilgan sa'y-

harakatlar natijasida Germaniya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Kanada, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar O'zbekiston fuqarolarini ishga jalb etishga katta qiziqish bildirmoqda. Ushbu yangi yo'nalishlarda bir guruh o'zbekistonliklar o'z mehnat faoliyatini boshlashdi. Xususan, 500 nafardan ziyod fuqarolarimiz Germaniyada ish bilan ta'minlandi.

Til bilish bu – boylik. Til bilgan inson dunyoni biladi, hech qachon kam bo'lmaydi. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy shunchalik ko'p tilni bilganidan tarixiy manbalarda va xalq orasida, «Forobiy yetmishdan ortiq tilni biladi», degan haqli e'tirofni olgan. Boisi o'z ona tili bilan birga chet tillarini bilish o'zga xalqlar tarixi, madaniyati, turmush tarzini o'rganishga imkon yaratgan.

Binobarin, har bir til o'ziga xos jihati bilan boshqalaridan ajralib turadi. Xuddi bizning tilda bo'lgani kabi boshqa tillar ham o'zida xalqning o'tmishini aks ettiradi. To'g'ri, kundalik hayot va ishni boshqarishda yangi tilni o'rganish qiyin bo'lishi mumkin, ammo to'g'ri yondashuv, fidoyilik bilan bunga erishsa bo'ladi.

Umuman olganda, chet tili o'rganishni ommalashtirish bugungi ta'lim tizimidagi ustuvor maqsadlardan biriga aylandi. Zero, xorijiy tilni bilish hayotda o'z o'rnini topishda asosiy shartga aylanib ulgurdi. Ona tilingizdan tashqari kamida bitta xorijiy tilni bilmas ekansiz, jahon bo'ylab yuqori daromadli ish o'rniga ega bo'lish, tajriba almashish, bilimlarni oshirish mushkul.

✓ Kuting!



Akmal JUMABOYEV,
partiya Markaziy kengashi devoni rahbari

**YANGI AVLOD
VAKILLARIGA
ENG KERAKLISI,
BU ISHONCHI!**

Kelgusi sonlarda

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisidagi nutqlaridan birida deputat hamisha xalq dardi bilan yashashi, odamlarni qiynayotgan muammolarni hal qilish uchun fidoyilik ko'rsatib, boshqalarga namuna ko'rsatishi, agar deputatning qalbi, vijdoni uyg'oq bo'lsa, vazirlar ham, hukumat ham, parlament ham uyg'oq bo'lishini ta'kidlagan edilar. Shu ma'noda, bugun Yangi O'zbekiston deputatlari oldiga har qachongidan ham katta mas'uliyat yuklatilib, talab kuchaytirilmoqda.



bu mas'uliyat va fidoyilik degani

Bugungi kun talablari asosida fuqarolarning siyosiy tafakkuri ham o'zgarayapti. Saylovchi nihoyat o'zi saylagan deputati oldiga muhim masalalar, talablar qo'yishni, takliflar bildirishni o'rgandi. O'z navbatida xalq vakillari orasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ijro organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish va saylovchilarni o'ylantirayotgan hayotiy muammolarni hal qilish borasida samarali faoliyat ko'rsatayotgan deputatlar soni ham ortib boryapti. Buni deputatlarining saylovchilar oldida ko'proq ko'rinib, targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirayotganlarida ham ko'rish mumkin.

Ma'lumki, endi Bosh Qomusimizga kiritilgan o'zgartirishlar tufayli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 50 foizi majoritar, 50 foizi esa proporsional saylov tizimi asosida saylanadilar. Bu, shubhasiz, siyosiy partiyalar zimmasidagi mas'uliyatni o'n chandon oshiradi.

Ayni paytda «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Toshkent shahar Kengashi a'zolari ham zimmasidagi mas'uliyatni chuqur anglagan holda faoliyat olib bormoqdalar. Bugun poytaxtda 64 nafar (10 nafar shahar va 54 nafar tuman) deputatimiz bo'lib, 2023-yilda ular tomonidan shahar kengashi sessiyalariga 18 ta masala olib chiqildi. Doimiy komissiya yig'ilishlariga 21 ta taklif kiritilib, qariyb 20 marotaba mansabdor shaxslarning hisobotlari eshitildi.

Deputatlik nazorati yuzasidan 17 ta, fuqarolar murojaati asosida 112 ta deputatlik so'rovi chiqarilgan bo'lsa, ularning deyarli barchasiga ijobiy yechim topildi.

2023-yilda tuman Kengashi deputatlari ham samarali ish olib bordilar. Kengash sessiyalariga 98 ta masala, doimiy komissiya yig'ilishlariga esa 111 ta taklif kiritildi. 103 nafar mansabdor shaxsning hisoboti eshitilib, deputatlik so'rovlari soni 430 tadan oshirildi.

Bunday tashabbuskorlik, saylovchi murojaatiga o'z vaqtda munosabat bildirish borasida

Yakkasaroy, Chilonzor, Mirzo Ulug'bek va Olmazor tumanlari yetakchilik qilgan bo'lsa, afsuski, Bektemir, Mirobod, Yangiheyot tumanlaridagi deputatlar qoniqsiz ish olib bordilar.

To'g'ri, xalq vakillari orasida deputatlik so'roviz ham saylovchilar muammosini joyida hal qilayotganlari oz emas. Lekin deputatlar zimmasiga qonun va qarorlarning joylardagi ijrosi bo'yicha nazorat o'rnatish, o'rganishlar asosida tegishli idoralarga so'rovlar chiqarishdek muhim vazifalar yuklatilganini ham esdan chiqarmaslik lozim.

Shu o'rinda «Milliy tiklanish»ning ezgu g'oya va tashabbuslari mohiyatini chuqur anglagan deputatlardan Vasila Fayziyeva, Dilfuza Yusupova, Laziz Hasanov, Feruza Karimova, Sanjarali Imamov, Ra'no Abduqodirova, Jamshid Karimov, Bahrom Sharipov, Jahongir Ziyayev, Nodira Tuykulova, Shaayyub Abdullayevlarni hech qanday mubolag'asiz boshqalarga o'rnak bo'layotgan deputatlar deb ko'rsatish mumkin. Ular orasida Yoqutxon Majidova, Abdumannop Abduqayumov, Gulnora Yusufaliyeva, Abdurashid Abdushukurov, Saidmurod Ibragimov, Sodiqjon Alimov, Ravshan Alixo'jayevlar aholi salomatligini mustahkamlash bo'yicha bepul tibbiy ko'riklar tashkil etishda faollik ko'rsatayotgan bo'lsalar,

Rahimqul Muhammadiyev, Gulbahor Qulmatova, Dilshod Isamiddinov, To'liqin Eshbekov, Samuk Abidovlar partiyaning g'oya va maqsadlari targ'ibotiga katta hissa qo'shishyapti.

Lekin tan olaylik, bugungi deputatlar qanchalik harakat

poytaxtlik deputatlar o'tgan yili Shayxontohur tumanidagi Arzlarxon Eshon masjidi hamda Yunusobod tumanidagi Oqtepa arxeologik yodgorligi holatini o'rganib, obidalarni ta'mirlashda jiddiy kamchiliklar borligini aniqladilar. Sifatsiz bajarilgan

Shundan kelib chiqib, «Milliy tiklanish»chilar ertangi kunimiz – farzandlarimiz kelajagi uchun nihoyatda muhim sanalagan «Yashil makon» umummilliy loyihasi ijrosini qat'iy nazorat qila boshladilar.

Deputatlarimiz boshqa soha va tizimlarda ham faollik ko'rsatishyapti. Masalan, Mirzo Ulug'bek tuman Kengashi deputati Yoqutxon Madjidova «Tibbiy madaniyatni oshirish oyligi» doirasida Toshkentdagi eng malakali mutaxassislarni jalb etgan holda tuman aholisi uchun bepul tibbiy ko'riklar tashkil etmoqda. Jahongir Ziyayev esa ijtimoiy tarmoqlar orqali kelib tushgan murojaatlar asosida fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatishda faol.

Xalq deputatlari Chilonzor tuman Kengashi deputati Nodir Ashrapov esa o'z saylov hududida kutubxona tashkil etgan bo'lsa, Sanjarali Imamov 270-sonli maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilarini mikroelementlarga boyitilgan pechene bilan ta'minlashni yo'lga qo'ydi.

Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashi deputati, o'z saylovchilari uchun tunu kun kuyunadigan, partiyaning katta qalbi a'zosi Vasila Fayziyevadan ham saylovchilar mamnun. Deputat aholi murojaatlarini deputatlik so'rovlari orqali hal qilishda ham boshqalarga o'rnak bo'lmaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Deputatlarimizning amaliy ishlari, tashabbuslari haqida uzoq gapirish mumkin, – deydi partiyaning Toshkent shahar Kengashi raisi, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati Otabek Jiyانبayev. – Asosiy vazifamiz eng avvalo, bizga ishonch bildirgan saylovchilar ishonchini qozonishdir. Bu bilan tabiiyki, partiyamizning jamiyatdagi obro' – e'tiborini oshishiga ham xizmat qilgan bo'lamiz. Ya'ni, bugungi saylovchi o'z deputatiga qarab uning nomzodini ko'rsatgan siyosiy partiyaga baho beradi. Shu bois, har bir xalq vakili deputatlikka mansab emas, mas'uliyat nazari bilan qarashi lozim.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ayni paytda poytaxtlik deputatlar o'z faoliyatlarini tanqidiy tahlil qilib, saylovchilarni ishonchini qay darajada oqlayapman, berilgan va'dalarni bajaryapmanmi, degan savollarga javob izlamoqdalar. Erishilgan yutuqlar, yuqori natijalar bilan havolanish davri allaqachon o'tdi. Zero, bugun saylovchilarga – xalqqa vijdonan xizmat qilishdan kattaroq baxt yo'q deputat uchun.

Laylo MUHITDINOVA,
partiyaning Toshkent shahar Kengashi matbuot kotibi

✓ Deputat minbari

JARIMA MIQDORI 98 FOIZGA QISQARTIRILMOQDA



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri o'rinbosari Odiljon Tojiyevning xabar qilishicha, Parlament quyi palatasida Soliq kodeksining 227-moddasiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritilishini nazarda tutadigan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Gap shundaki, tadbirkorlar u yoki bu sabab bilan mahsulotni markirovkalamagan yoki do'koniga avtomatlashtirilgan hisobga olish o'lchov vositalarini o'rnatma olmagan taqdirda oxirgi hisobot choragida ega bo'lgan sof tushumni jarima shaklida to'lashga majbur bo'layotgan edi. Yangi qonun loyihasi bilan endilikda fiskal tartib-qoidalarga oid huquqbuzarliklar uchun qo'llaniladigan moliyaviy jarima miqdori qariyb 98 foizga qisqartirilmoqda. Ya'ni, yuqoridagi huquqbuzarlikni sodir etgan tadbirkor endi uch oylik sof tushumni emas, shu tushumning 2 foizi miqdorida jarima to'laydi, xolos. Qonun Quyi palatada qabul qilinib, Senatga yuborildi.

” Borgan sari havosi ifloslanib borayotgan Toshkent shahri uchun ham bu muammo yangilik bo'lmay qoldi. Xususan, yaqinda «Yashil makon» umummilliy loyihasining ijrosi doirasida o'rganishlar olib borgan deputatlar sug'orish tizimi mavjud bo'lmagan joylarga nihollar ekilganini, oqibatda daraxtlar nobud bo'lganini aniqladilar.

qilmasinlar, ular faoliyatini Yangi O'zbekiston islohotlari talabi darajasida deiysh qiyin. Hatto, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari orasida haligacha o'z saylovchilari bilan uchrashishga ulgurmaganlari qancha... Chunki saylovchi talabi tezkor davr talablariga monand ravishda kundakunora o'zgarib turibdi, doimo yangi, hatto kutilmagan qonunlar, qarorlar qabul qilinayaptiki, ularga amal qilish uchun ma'lum bir muddatlar talab etilmoqda.

Deputat va saylovchi munosabatlari haqida gap ketganda kengash qoshida tashkil etilgan maxsus komissiya faoliyatiga alohida to'xtalmoq lozim. Ayni paytda ushbu komissiya tomonidan deputatlarimiz faoliyati muntazam monitoring qilib borilyapti. Yaqinda komissiya tomonidan ikkita tuman kengashi faoliyati qoniqsiz deb topilib, hatto guruh rahbarlari almashtirildi. Ma'lumki, qonunchilikda ayrim deputatlar o'z faoliyatini bugungi kun talablari asosida tashkil qilmasa, vakolatini muddatidan oldin tugatish masalasi ko'rib chiqilishi belgilangan. O'tgan yillar davomida shahar kengashidagi ikki nafar deputatning vakolati muddatidan avval tugatilganining sababi ham shunda.

Shuningdek, komissiya tomonidan sustkashlikka yo'l qo'yan Bektemir, Mirobod, Yangiheyot tuman kengashi raislariga jiddiy e'tirozlar ham bildirildi. Targ'ibot tadbirlari kuchaytirilib, partiya xayrixohlarini a'zolikka qabul qilish, aholi muammolarini o'rganish va bartaraf etish maqsadida «Uymay», «Deputat bilan yuzma-yuz», «Sayyor qabul»larni nomigagina uyushtirib, hisobot uchun faoliyat yuritayotganlar ogohlantirildi.

Ammo Toshkentda partiyaning g'oya va maqsadlari yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan deputatlarimiz ko'p. Xususan,

ishlar yuzasidan tegishli idoralarga deputatlik so'rovlari chiqarildi. Ayni paytda mavjud muammolarni hal qilish jarayoni ketyapti. Misol uchun, Oqtepa arxeologik yodgorligida obodonlashtirish ishlari olib borilib, turizmni rivojlantirish maqsadida soya-salqin joylarda supa hamda kichik choyxonalar qurilmoqda.


Deputatlarimiz doimiy komissiya yig'ilishlarida shahar obodonlashtirish boshqarmasining 2023-yildagi hisobotini ham eshitdilar. Mavjud muammolarni o'rganish uchun Uchtepa tumanidagi obodonlashtirish idorasi faoliyati obdon o'rganilgacha, boshqarma xodimlari uchun ajratilgan bino hamda texnikalarni saqlash holati talab darajasida emasligi aniqlandi.

Ma'lum bo'lishicha, bu borada Uchtepa tumani hokimligiga uch yildan buyon murojaat qilinadi. Ammo hanuzgacha natija yo'q.

Xalq vakillari bunday muammolarni poytaxtning boshqa tumanlarida ham aniqladilar. Ayni paytda ushbu masalalarni deputat so'rovi orqali hal qilish choralarini ko'rilyapti.

Ko'pchilikka yaxshi ma'lumki, 2022-yili daraxt ekish ishlari tizimli tashkil etilmagani, sug'orish va parvarishlash uchun tegishli mas'ullar biriktirilmagani bois respublika bo'yicha jami 6,2 million dona ko'chat hisobotlarga qo'shib yozilgan, 3,4 million dona ko'chat esa sug'orish tizimi bo'lmagan joylarga ekilgan. Achinarlisi, 2,4 million dona ko'chat suvsizlik va yetarli parvarish qilinmagani sababli yozgacha ham yetib bormagan.

Borgan sari havosi ifloslanib borayotgan Toshkent shahri uchun ham bu muammo yangilik bo'lmay qoldi. Xususan, yaqinda «Yashil makon» umummilliy loyihasining ijrosi doirasida o'rganishlar olib borgan deputatlar sug'orish tizimi mavjud bo'lmagan joylarga nihollar ekilganini, oqibatda daraxtlar nobud bo'lganini aniqladilar.



АМАЛДА СЎЗ ВА МАТБУОТ ЭРКИНЛИГИ, АХБОРОТ ОЛИШ КАФОЛАТИ, УНИ ТАРКАТИШ ХУКУКИНИНГ ТАЪМИНЛАНГАНЛИГИ ИНСОН КАДРИНИ УЛУГЛАШ, ДЕМОКРАТИК ЖАМИЯТ ВА ХАЛҚПАРВАР ДАВЛАТ КУРИШ ЙЎЛИДАГИ ЭНГ МУХИМ КАДАМ БЎЛДИ, ДЕЙИШ МУМКИН.

Қўлланма

ОЛИМЖОН ҲАҚИМОВ

Қўлланмаси қайта

НАШР ЭТИЛДИ

Таниқли журналист Олимжон Ҳақимовнинг «Оммавий ахборот воситалари ва ахборот хизматлари: назария ва амалиёт» номли ўқув қўлланмаси қайта нашр қилинди. Қўлланма Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ошкоралик ва сўз эркинлиги – давр талаби, бугун Ўзбекистонда олиб борилаётган ислохотларнинг талаби. Бугунги кунда оммавий ахборот воситалари том маънода «тўртинчи ҳокимият»га айланиб бормоқда», деган сўзлари билан бошланган.

Таъкидлаш лозим, жадид боболаримизнинг «Матбуот фикрлар тилмочи, миллат ва эл-юрт ривожини йўлида хизматчи, одамлар онгу шуурининг куёши, ҳар кимнинг виждонига тутилган кўзгу бўлмоғи лозим», деган фикри Янги Ўзбекистонда ҳақиқий маънода ўз тасдиғини топмоқда. Юртимизда сўнгги йиллардаги тарихий ўзгаришлар натижасида оммавий ахборот воситалари эркин фикр минбарига, халқимиз манфаатларининг фаол ҳимоячисига айланыпти. Амалда сўз ва матбуот эркинлиги, ахборот олиш кафолати, уни тарқатиш ҳуқуқининг таъминлангани Инсон кадрини улуглаш, демократик жамият ва халқпарвар давлат куриш йўлидаги энг муҳим кадам бўлди, дейиш мумкин. Янги таҳрирдаги Қомусимизда

лар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ҳамда уларни рағбатлантириш, соҳа вакиллари ўртасида соғлом ижтимоий рақобат муҳитини ривожлантириш мақсадида эса Ўзбекистон Журналистлар уюшмасининг ваколатлари кенгайтирилди. Ҳақиқатдан ҳам бугун ҳаётимизни ахборотларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Юқори технологиялар ривожини эса ахборотнинг аҳамияти ва унга бўлган эҳтиёжини кун сайин оширмоқда. Давлат идоралари ва маҳаллий ҳокимликларда ахборот хизматларининг ташкил қилингани ҳам шу каби эҳтиёждан келиб чиққан. Натижада давлат идоралари фаолиятининг шаффоф ва ҳисобдорлигини таъминлаш, уларнинг очиклик борасидаги самарадорлик кўрсаткичларини белгилаш буйича халқаро талаб-



тадқиқ этиш, илмий-амалий тадқиқотлар ўтказиш, эришилган натижалар асосида тегишли таклифлар, тавсия ва ҳулосалар тайёрлаш, масс-медиа соҳаси ва ахборот хизматлари вакиллари кўндalik фаолиятига кўмак берадиган ўқув-услубий қўлланмаларни яратиш долзарб вазифага айланди. Олимжон Ҳақимовнинг «Оммавий ахборот воситалари ва ахборот хизматлари: назария ва амалиёт» ўқув қўлланмаси айнан ана шундай камчиликларни тўлдиришда муҳим аҳамият касб этиши шубҳасиз.

Тўрт бўлимдан иборат қўлланмада глобаллашув даврида миллий масс-медиа ва ахборот хизматларининг ўрни ва роли, ўзига хос хусусиятлари, тарихий тараққиёти, бугунги ҳолати ва истиқболлари, хусусан, ОАВ ва суд ҳокимияти муносабатларининг ҳуқуқий асослари, судлардан ахборот олиш, тарқатиш муаммолари, журналистик маҳорат, этика масалалари кенг ёритилган. Шунингдек, сиёсий партияларнинг гоя ва мақсадлари тарғиботи, сиёсий технологияларни самарали қўллаш, PR ва уни амалга ошириш усуллари ҳамда давлат органлари, жумладан, парламентда журналистларни рўйхатдан ўтказиш зарурати, унинг мақсади, моҳияти, пресс-конференция ўтказиш, пресс-релиз ёзиш тартиблари назарий ва амалий жиҳатдан тадқиқ этилиб, бу борада илғор халқаро тажриба киёсий ўрганилган.

пресс-конференция ўтказиш, ахборот соҳасига онд муносабатларни тартибга солувчи катор халқаро ҳамда миллий меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар обдон таҳлил қилинган.

Маълумки, сиёсий партиялар фаолияти самарадорлигини оширишда энг синалган ва оммабоп усул бу – жамоатчилик билан алоқаларни тўғри йўлга қўйишдир. Ўқув-қўлланмадан айнан партиялар жамоатчилиги билан ишлашда нималарга эътибор қаратиши зарурлиги, қандай замонавий усул ва воситалардан фойдаланиш кераклиги каби саволларга жавоб берилган. Айниқса, демократик ислохотларни янада чуқурлаштиришда сиёсий партияларнинг амалий иш натижадорлигини ошириш, аҳолининг партияларга бўлган ишончини мустаҳкамлаш, эътиборини янада кучайтириш ва ўтказилиши режалаштирилаётган сайловларда уларни қўллаб-қувватлаш зарурлиги таъкидланган.

СўНГГИ ЙИЛЛАРДА АЙРИМ ОАВДА АНА ШУНДАЙ ЭРКИНЛИК ВА ИМКОНИАТЛАРДАН ТўГРИ ВА САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНА ОЛМАСЛИК, ШОШМА-ШОШАРЛИК, МАВЗУГА ЧУҚУР КИРМАСДАН, БИР ЁҚЛАМА МУЛОҲАЗА ЮРИТИШ ҲОЛАТЛАРИ КўП УЧРАМОҚДА.

ҳам ушбу йўналишдаги конституциявий нормалар янада мустаҳкамлангани Ўзбекистонда ортга қайтмас ислохотлар бошланганидан, бу борадаги саяёҳаракатларимиз бардавомлигидан дарак беради. Фукараларнинг сўз ва ахборот эркинлигига доир конституциявий ҳуқуқларини таъминлаш, мамлакатимизни ҳар жиҳатдан ривожлантиришда ОАВ ролин кучайтириш, моддий-техника таъминотини мустаҳкамлаш, медиа бозорини тенг шароитлар яратиш, журналист ва блогерлар фаолиятини янада кучайтириш мақсадида Миллий масс-медиа қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш жамоат фонди ташкил этилди. Журналист-

лар асосида баҳолаш тизими жорий этилди. Айниқса, бу ҳаракат халқ билан мулоқотни кучайтиришга сезиларли таъсир кўрсатди. Албатта, бундай тизимли ўзгаришлар журналистларнинг замон билан ҳамнафас бўлиш, керак бўлса бир қалам олдинда юриш хисси ва масъулиятини оширмоқда. Бирок сўнгги йилларда айрим ОАВда ана шундай эркинлик ва имкониятлардан тўғри ва самарали фойдалана олмаслик, шошма-шошарлик, мавзуга чуқур кирмасдан, бир ёқлама мулоҳаза юритиш ҳолатлари кўп учрамоқда. Шу маънода, миллий журналистика олдида турган масалаларни изчил ўрганиш, таҳлил-

Муаллиф, шунингдек, ўқув қўлланмада бугунги кунда партия матбуотининг муҳим элементини – унинг электрон нуسخаси мавжудлигини, аммо сиёсий партия нашрларининг бу борадаги ишлари талаб даражасида эмаслигини, партия ёки муайян сиёсатчи учун муваффақиятга эришишнинг муҳим омилли ОАВ билан самарали ҳамкорликни йўлга қўйиш лозимлигини таъкидлайди.

Қўлланмада давлат ҳокимияти ва бошқарув органларида оммавий ахборот воситалари вакиллари аккредитация қилишнинг зарурати, «Аккредитация институти» тушунчаси, таснифи, ҳуқуқий асослари ҳамда ўзига хос хусусиятлари илмий асосда ўрганилиб, мамлакатимизда давлат ҳокимияти органлари орасида биринчилардан бўлиб ўз фаолиятида аккредитация институти жорий этган Олий Мажлис Қонунчилик палатаси тажрибаси таҳлил қилинган. Шу билан бирга хозирги пайтда ахборот агентликларининг ўзига хос хусусиятлари, ҳуқуқий асослари,

Шу жиҳатдан қўлланма оммавий ахборот воситалари ҳодимларининг кўндalik фаолиятида, жамоатчилик билан алоқалар йўналишига қизиқувчилар ҳамда олий ўқув юртида «Public relations» фани ўқитилишида ўқув-услубий, назарий ва амалий қўлланма бўлиб хизмат қилади дейиш мумкин. Юқоридагилардан хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, бугунги ахборот асрида Олимжон Ҳақимовнинг «Оммавий ахборот воситалари ва ахборот хизматлари: назария ва амалиёт» ўқув қўлланмасини қаттарок адабда яна нашр қилишга эҳтиёж мавжудлигини даврнинг ўзи такозо этмоқда.



Мухлис ЭРГАШЕВА, журналист

✓ Бугуннинг гапи

СИЧҚОННИНГ ҚУЛОФИГА



Ўзи азалдан шунақамиз... «сеқсаларни «бериб» қўйганимиздан кейин надомат чекиб юрамиз. Вақт ўта бошлагач, ўзимизни оқлашга тушамиз... Ушанда нега шошилдим! Пойтахтда «ўт олиб» кетаётган ишим йўқ эди-ку. Нима жин урди мени?! Хуллас, ўтган йилнинг Наврўз байрамини қишлоқда ўтказиб, шаҳарга қайтаётсам йўл четид турган Қобил оксоқлга кўзим тушди. Машинадан тушиб сўрашдим. Билдим, аниқроғи сездим, бир даъфа бўлсада мен билан суҳбатлашгиси бор эди. Шошиб турганлигимни-ю ишим қўплигини рўқач қилувдим ҳамки у бирозгина сабр қилишимни илтимос қилиб кўзларимга тикилди.

– Менга кара, телефон болалари, телевидение валломатлари ҳақида қачон ёзасан? Ахир болакайлари нинг қўлидан шу савил матох тушмай қолдику. Ҳеч бирининг қўлида китоб кўринмайди. Ахир бу кетинида улар шу телефоннинг қулига айланиб қолишадик. Мактаб болаларининг қўлида алламбало телефонлар, каттақонлар бунга қарши бирон чора топишса бўлмайди?! Телевизорнику умуман кўриб бўлмай қолди. Бир-биридан бачкана сериалларга тўлиб кетди. Миллат ойдинлари-олимлар, шоирлар, ёзувчилар, дин пешволарию, зиёлиларни кўрсатиш ўрнига халқ дидини ўтмаслаштираётган отарчи-хонандаларни тарғибот қилиш билан овра бўлиб қолишди. Ахир бу кетинида нима бўлади?! Нега шулар ҳақида ёзмайсан?! Нима, бу ҳолатларга барҳам берадиган бирон бир мард ташкилот йўқми?! Нега уларни уйготмайсан?! Сен шулар ҳақида ёзгин болам.

Оксоқол шу сўзларни айтиб-тиб ҳовуридан тушгандек бўлди-да, йўлига равона бўлди. Кейинчалик билсам, у юқоридаги мулоҳазаларини менга васият қилиб кетган экан. Чунки Қобил чўпон бу йилги Наврўз сайлига етолмай 91 ёшида бу оламни тарқ этди. Бугун шулар ҳақида мулоҳаза юритишга уринаётганиман, оксоқолнинг саволларига жавоб топишга ҳаракат қилияман. Очиги, минг марта ёзганим билан бугуннинг боласининг қўлидан телефонни олиб қўёлмайман. Чунки унга бу касал кўндокда теккан. Уларнинг кўзлари телефон экранларига шундай қадалганки, ундан бошқасини кўролмайди. Телефон турганда боласи кўзига кўринмайдиган отаналар кам дейсизми орамизда? Телевидениедаги айрим раҳбарларнинг қулоғига қарнай боғлаб қўйиб, экранлардаги номакўбчиликлар, шармисорликлар, сафсата-бозликлар ҳақида соатлаб гапирсақ ҳам уларни сарик чакага ҳам олишмайди. Са-

баби – улар рейтингбозлик вазвасаси отлиғ юқумли касалликка йўлиқшган. Шарм-ҳаёсиз сериаллар, бемаза кўрсатувлар, орномусни пайхон қилиб, бутун бир миллатнинг шаъни ва гурурини ерга уриб, мазах ва калака қурбони бўлаётган отарчи-ю хонандаларнинг бари аслида юқорида номи келтирилган хасталикларнинг асл кўринишларидир. Қобил Олқоровнинг умри Фориш тумани кирадирларда ўтди. У сурув-сурув қўй хайдаб, бир умр чўпонлик қилди. 75 йил бу касал кўндокда қўймади. Давлатга минглаб тонна гўшт ва жун етказиб берди. Сурувларидаги ҳар юз бош совлиқдан 180 тагача қўзи ола билгани учун собик советлар тузуми даврида Мехнат Қаҳрамони унвони билан тақдирланди. Одатда кўпчилик чўпон-чўликни саводсиз, оми одамлар дейишди. Лекин Қобил бобо ўта илмли, зукко инсон эди. Мутулаани қанда қилмасди. Сурувнинг орқасидан юрганда ҳам қўлтигида китоб,

Hamid Olimjon

Урик чулганда

Деразамнинг олдида бир туп Урик оппоқ бўлиб гуллади...

Новдаларни бебаб гунчалар, Тонгда айтди ҳаёт отини Ва шаббода қурғур илк саҳар Олиб кетди гулнинг тотини.

Ҳар баҳорда шу бўлар такрор, Ҳар баҳор ҳам шундай ўтади, Қанча тиришсам ҳам у беор Еллар мени алдаб кетади.

Майли, дейман ва қилмайман гаши, Хаёлимни гулга ўрайман; Ҳар баҳорга чиққанда яккаш, Бахтим борми, дея сўрайман.

Юзларимни силаб, сийпалаб, Бахтинг бор, деб эсади еллар. Этган каби гўё бир талаб, Бахтинг бор, деб қушлар чийиллар...

Ҳамма нарса мени қаршилар, Ҳар бир куртук менга сўйлар роз, Мен юрганда боғларга тўлар Фақат бахтни мақтаган овоз:

«Мана сенга олам-олам гул, Этагинга сиққанича ол, Бунда толе ҳар нарсадан мўл, То ўлгунча шу ўлкада қол.

Умрида ҳеч гул қўрмай, йиғлаб Утганларнинг ҳаққи ҳам сенда, Ҳар баҳорни йиғлаб қаршилаб Кетганларнинг ҳаққи ҳам сенда...»

Деразамнинг олдида бир туп Урик оппоқ бўлиб гуллади...

ХАЁЛИМДА БЎЛДИНГ УЗУН КУН...

Хаёлимда бўлдинг узун кун, Сени излаб қирғоққа бордим. Оч тўлқинлар пишқирган тунда, Топиб бер, деб Ойга ёлвордим.

Ишон, бунда сени доимо Эса солар чиройли тунлар, Шўх юлдузлар, салқин сахарлар, Эса солар бахтиёр кунлар.

Толеимнинг ошиноси сен, Сен севгимнинг кўккарган боғи. Сенинг билан бирга иқболим, Ишончимнинг сен вафо тоғи.

Мени қуршар салқин бир ҳаво, Сув устидан тун қуолади. Шунда қанча-қанча запарни Эса солиб Ой ҳам тўлади.

Кеча жим-жит, ёлғиз тўлқинлар Пишқиради билмай тинимни. Ҳийлавар ой, сеҳрғар дилбар, Солиб қўйдинг ёдимга кимни?..

Севги десам, фақат сен десам, Сенинг билан яшаса қалбим; Сен десам-у, бутун дунёнинг Шўришига қулоқ солсам жим...

Куюн каби айланар бошим, Қарайман-у, кўзим тинади Ва жилвангдан кўнсил кўзгуси Парча-парча бўлиб синади.

Шу қарашга борми ниҳоя, Бўларманми мақсадга восил? Топарманми бир янги ғоя, Бўларманми бир мурод ҳосил?

Топиларми унда бир чора, Агар мени қуршаса жунун: Бўлиб қолса сирим ошқора, Атасалар номимни Мажнун?

ҲОЛ

Қайдан келдинг, фикримни бўлдинг, Нега этдинг мени паршон? Нега буздинг мунис ҳолимни, Ўйларимни нечун бемакон?

Эҳтирослар, ҳислар, ёнишлар Ўлкасини кезарди хаёл, Ҳоким эди менинг руҳимда Шундай латиф илҳомий бир ҳол.

Бир кичик тор, бир ёниқ парда Қанча гапни айтиб берарди... Онасидан ўрганганини Чумчуқ чувлаб қайтиб берарди...

Тиккан эдим қалб қулоғини Ва фикримга берган эди жон, Чивин учса келарди малол, Шунга эди садоқат, имол.

Халал берма, озроқ кўниб тур, Тамом қилай шу гул суратни, Қўйил мени, юракнинг қони Билан тортай энг сўнги хатни.

САВОЛ БЕРИНГ!

Кам таъминланган оила аъзоларига вақтинчалик ишлаш учун хорижга чиқайтганда қанча миқдорда микроқарз берилади? Шу ҳақда маълумот берсангиз? Ботир Қаршиев, Қарши шахри

Кадастр паспортини ҳеч қаерга бормасдан онлайн расмийлаштириш мумкинми? Машхурбек Лочинбеков, тадбиркор

Қандай ҳолларда пенсия қайта ҳисобланади? Раъно Худойбердиева, Гулистон шахри

Қандай ҳолларда ходимнинг розилигидан қатъи назар унинг меҳнат ҳақидан ушлаб қолиниши мумкин? Дилфуза Турсунова, эксперт

Микроқарзлар «Ижтимоий химоя ягона реестри» ахборот тизими орқали кам таъминланган оила аъзоси сифатида эътироф этилган ва ташкиллаштирилган меҳнат миграцияси йўли билан вақтинчалик меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун хорижга чиқиб кетаётган шахсларга хорижда ишга жойлашиш (шу жумладан, йўл ҳақини тўлаш ва меҳнат фаолиятига руҳсат олиш) билан боғлиқ харажатларни қоплаш учун 10 миллион сўмгача миқдорда бир йил муддатга берилади. Advice.uz ҳуқуқий ахборот портали

Ҳа, мумкин. Бунинг учун: • my.gov.uz порталида рўйхатдан ўтиш; • «Кадастр» бўлимидан тегишли хизматни танлаш; • Керакли маълумотларни тўлдириб, ариза йўллаш кифия. Ушбу хизматдан фойдаланиш учун кўл остингиздаги кўнмас мулкка бўлган ҳуқуқларни тасдиқловчи ҳужжат бўлиши лозим. Кадастр паспортининг тайёр бўлиш муддати: • Кўп қаватли уйлардаги хонадон — 3 иш кун; • Якка тартибдаги турар жой — 5 иш кун. Муружаат кўриб чиқилгач, талабгорга my.gov.uz орқали электрон шаклдаги кадастр паспорти такдим этилади.

«Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги Қонуннинг 49-моддасига асосан, пенсияларни қайта ҳисоблаш пенсионер пенсия миқдорига таъсир кўрсатувчи (пенсия тайинланишигача бўлган иш вақти ва иш ҳақи тўғрисидаги ҳамда бошқа) кўшимча ҳужжатларни такдим этган тақдирда, ногиронлик гуруҳи ўзгарганда, боқувчисини йўқотганлик пенсияси оладиган оила аъзолари сони ўзгарганда, пенсияни ҳисоблашнинг базавий миқдорлари ўзгарган тақдирда, ёшга доир энг кам пенсия миқдори ўзгарганда, даромадлар индексация қилинган тақдирда амалга оширилади. Раҳимжон Шуқуров, ҳуқуқшунос-маслаҳатчи

Солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни ундириш учун; суднинг қарорлари ва бошқа ижро ҳужжатларини ижро этиш учун; иш ҳақи ҳисобига берилган авансни ушлаб қолиш учун, ҳўжалик эҳтиёжлари, хизмат сафарларига ёки бошқа жойдаги ишга ўтганлиги муносабати билан берилган бўлиб, сарф қилинмай қолган ва ўз вақтида қайтарилмаган авансини ушлаб қолиш учун ҳамда ҳисоб-китобдаги хатолар натижасида ортиқча тўланган суммани қайтариб олиш учун; ҳисобдан ходим таътил олиб бўлган иш йили тугамасдан туриб меҳнат шартномаси бекор қилинганда; ходим томонидан иш бевурига етказилган зарарни қоплаш учун, агар етказилган зарарнинг миқдори ходимнинг ўртача ойлик иш ҳақидан ортиқ бўлмаса; ходимга интизомий жазо сифатида қўлланган жаримани ундириш учун. Юрист блогер расмий телеграм канали

Субсидия асосида уй-жой олишига аризалар қаерга топширилади? Умиджон Солижонов, Термиз шахри

АИ-80 маркали бензинни АИ-92 ёки АИ-95 деб сотилиши ҳолатларида қаерга шикоят қилса бўлади? Шу ҳақда маълумот берсангиз? Руслан Ахмедов, Китоб тумани

Бундай ҳолатларни аниқлаш ва бартараф қилиш учун «Энергоинспекция» (+99871 200-02-86), «O'zbekneftgaz» (+99871 233-28-88.) Истеъмолчилар ҳуқуқларини химоя қилиш кўмитаси (99871 207-48-00) ҳамда Энергетика вазирликлари (+99871 231-81-18) муружаат қилишингиз лозим. Subsidiya Markazi расмий телеграм канали

Ҳуқуматнинг 182-сон қарори билан тасдиқланган Низомга асосан, ариза бевурича ипотека кредитлари бўйича субсидия олиш учун инсталган туман (шаҳар) давлат хизматлари марказига ўзи келиб муружаат этади ёки Ягона интерактив давлат хизматлари порталида давлат хизматидан электрон тарзда фойдаланиш учун рўйхатдан ўтади. Ипотека кредити бўйича субсидия олиш учун Давлат хизматлари марказига бевосита ёки онлайн шаклда ариза берилади.

Васийлик ва ҳомийлик қимларга тайинланади? Сарвар Аброров, Бухоро вилояти

2024-йил 1-апрелдан Ўзбекистонда нималар ўзгаради? Ойгул Қиличева, Қасби тумани

Фуқаролик кодексининг 32-моддасига асосан, васийлик ва ҳомийлик муомалага лаёқатсиз ёки муомалага тўлиқ лаёқатли бўлмаган фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини химоя қилиш учун белгиланади. Вояга етмаганларга васийлик ва ҳомийлик уларни тарбиялаш мақсадида ҳам белгиланади.

Тадбиркорларга субсидиялар янги тартиб бўйича ажратилади; Эндиликда суюнчи нули барчага бирдек берилмайди; Айрим ёлғиз кексаларга поезд ва автобус чипталари бепул бўлади; Ҳудудларнинг ҳаво рейтингини жорий этилади.



Узингизни қизиқтирган саволларга жавоб тополмаяёсизми? Бизнинг қуйидаги телеграм манзилимизга йулланг, бизнинг мутахассислар саволларингизга жавоб беришади. 90 245-18-10

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY GAZETASI
JAMOATCHILIK KENGASHI: Alisher QODIROV - kengash raisi
TAHRIRIYAT MANZILI: Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.
Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan №0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Adadi - 5 263.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G - 421
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 01:10
ISSN 2010-7714
(97) 755-10-11
123456